

"Navoiyazot" AJ: eksport geografiyasi kengaymoqda

// 04 January 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-aj-eksport-geografiyasi-kengaymoqda>



2024-yilda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan karbamid, ammiakli selitra, suyuq xlor, PVX, suyuq argon, xlorid kislotalari, suyuq ammiak singari mahsulotlar xorijiy mamlakatlarga yetkazib berildi.

Poyoniga yetgan yil davomidagi eksport hajmi 107 million 406 ming dollardan oshdi.

Bugungi kunda jamiyat kimyoviy mahsulot va mineral o'g'itlari Avstriya, Afg'oniston, Belorussiya, Bolgariya, Gretsiya, Iroq, Qozog'iston, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Malayziya, Moldova, Mongoliya, Myanma, BAA, Polsha, Rossiya, Ruminiya, Tojikiston, Turkmaniston, Tailand, Turkiya, Ukraina, Xorvatiya, Shveysariya, Shvetsiya, Estoniya, Yaponiya kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

"Navoiyazot" AJ axborot xizmati